


1. Ff harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganiningizni aytin.
2. Fonar so'zining chizmasidan [f] tovushining o'rnini aniqlang va tegishli kataknini bo'yang.
3. Berilgan namunadan bosma Ff harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.
4. So'zlarni avval nuqtalar yordamida, so'ng mustaqil yozing.
5. Rasmida ifodalagan so'zni topib yozing. (yil fasllari, bahor, yoz, kuz, qish)



### Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-qaysi topshiriqni bajarishga qiyndaldingiz?

## 52-mavzu: [f] tovushi. F f harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

### Dars maqsadi:

- [f] tovushining talaffuzi va F f harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [f] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** fazogir, koinot, [f] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** rasmlli va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar, fazogir, koinot tasviri

### Darsning borishi:

#### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

##### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi 3 ta so'zdan iborat gap tuzishni so'raydi.

-Bugun siz bilan "gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. # ta so'zdan iborat gap tuzing.

#### Asosiy qism (40 daqiqa)

##### 1. Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

## **Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birqalikda tuziladi.**

Rasmdagi bog'liqlik haqida suhabatlashiladi. Ular orasidan bitta so'zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.  
fil- 1 bo'g'in chizmasi



Qolgan so'zlar qatorlarga bo'lingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda o'quvchilar berilgan so'zning chizmasini chizadilar. Har bir qatordan vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan o'quvchilar tekshirib oladilar:

1-qator: flamingo

2-qator: jirafa

3-qator: fonar

## **Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)**

**Harflar tasmasidan o'tilgan harflar esga olinadi.**

O'xshash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi.

Far-zand, far-rosh

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

Topishmoq o'qitiladi. Rasmlar orasidan javoblari topiladi.

Oqib kelar shildirab,

Oynadayin yaltirab. (suv)

Qirg'oqlarni birlashtirib,

Masofani yaqin qilar.(ko'pri)

Bolalarni maftun etar,

Kun o'tgani bilinmay ketar. (arg'imchoq)

O'qishni biladigan o'quvchiga o'qitiladi.

Billur kabi tovlanib,

Dilga huzur baxsh etar.

Mayin raqslari bilan

Hammani maftun etar.

Bu nima, topinglar-chi!

Topdim, bu –(favvora).

Rasm asosida suhabat o'tkaziladi. Favvoralar haqida gaplar tuziladi. Tuzilgan gap chizmasi doskaga chiziladi.

**Darslik**

(f) favvus, ff farsh, ss-dars

Rasenga qarang. F harfi qatashgan so'zlarini topin, ularga mos chizma chizing.	nat na-to-sat saf fa-ro-von fan fav-vo-ra
Rasmlar orasidan topishmoqlar javobini loping.	fasl far-zand fikr fa-nish-ja farz fa-za-gir
Oqib kelar shildirab, Oynadayin yaltirab.	t n i m d k ö y f q s z v p g g' h sh
Qirg'oqlarni birlashtirib, Masofani yaqin qilar.	Bolalarni maftun etar, Kun otgani bilinmay ketar.
Billur kabi tovlanib, Dilga huzur baxsh etar. Mayin raqslari bilan Hammani maftun etar. Bu nima, topinglar-chi! Topdim, bu – ...	63

## **Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)**

1. Rasmlar nomini ayting va kataklarni so'z chizmasiga mos ravishda bo'yang.
2. Namunaga qarab harflani tegishli shaklga joylang.



3. Harflar orasidan hayvonlar nomini topib bo'yang.(fil, ot, it, bo'ri, tulki)

F	I	L	R	O	T	O	I	T	F	B	O'	R	I	E	T	U	L	K	I
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	---	---	---	---	---	---	---	---

fotografiya

4. So'zdagи harflardan yangi so'zlar tuzib yozing.  
(ota, foto, fotograf, iftor, ifor, tor...)

**Darsga yakun yasash:**

- Mashg 'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

**53-mavzu: [ch] tovushi. Ch ch harfi**

**Dars maqsadi:**

- [ch] tovushining talaffuzi va Ch ch harf birikmasining bosma shakli bilan tanishadilar;
- [ch] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [ch] harf birikmasining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [ch] tovushi ishtirok etgan so'z va gaplarni o'qishni o'rganadilar.

**Tayanch so'zlar:** Joy nomlarini yozilishi, [ch] tovushi

**Didaktik materiallar:** rasmi kartochkalar, tog'lar rasmi

**Darsning borishi:**

### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

**Faollashtirish mashqi:**

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Kim biladi mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan tovushlarni aytadi.

O'quvchilar shi tovushlarni ifodalovchi harflarni yozadilar. Kim birinchi yozib bo'lsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

-Bugun siz bilan "Kim biladi" mashqini o'tkazamiz. Men aytgan tovushlarni kim birinchi bo'lib qog'ozga yozib ko'rsatsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

### Asosiy qism (40 daqiqa)

#### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi soatni , chumchuqni rasmini qo'yadi. O'quvchilardan bu narsalarning o'rasida qanday o'zhashlik bor ekanligini so'raydi.

**Amaliy topshiriqni muhokama qilish:**

- Rasmda nimalar tasvirlangan?